

## OLIV TA'LIMDAGI INNOVATSION TEXNALOGIYALAR: TA'LIM SIFATI VA O'QUV JARAYONLARINI LOYIHALASHTIRISH

*Xasanov Akrom Anvarovich*

*Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD*

*Baxtiyorova Barchinoy Otayor qizi*

*Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi*

*Annotatsiya.* Ushbu tezisda oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish va o'quv jarayonlarini samarali loyihalashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Raqamli ta'lim muhitlari, masofaviy o'qitish platformalari, pedagogik dizayn tamoyillari hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim modellari tahlil qilinadi. Innovatsion yondashuvlarning ta'lim sifati monitoringi va ta'lim natijalarining barqarorligini ta'minlashdagi o'rni asoslab beriladi.

*Kalit so'zlar:* innovatsion texnologiyalar, oliy ta'lim, ta'lim sifati, pedagogik dizayn, raqamli ta'lim, o'quv jarayonlarini loyihalashtirish, kompetensiyaviy yondashuv.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ И ПРОЕКТИРОВАНИЕ УЧЕБНЫХ ПРОЦЕССОВ

*Хасанов Акром Анварович*

*Доцент Самаркандского государственного  
педагогического института, PhD*

*Бахтиярова Барчиной Отайор кизи*

*Студентка Самаркандского государственного  
педагогического института*

**Аннотация.** В данной диссертации научно-теоретически рассматриваются вопросы повышения качества образования и эффективного проектирования учебных процессов через внедрение инновационных технологий в системе высшего образования. Анализируются цифровые образовательные среды, платформы дистанционного обучения, принципы педагогического дизайна, а также модели обучения, ориентированные на компетенции. Обосновывается роль инновационных подходов в мониторинге качества образования и обеспечении устойчивости образовательных результатов.

**Ключевые слова:** инновационные технологии, высшее образование, качество обучения, педагогический дизайн, цифровое обучение, проектирование учебных процессов, компетентностный подход.

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION: EDUCATION QUALITY AND CURRICULUM DESIGN

***Khasanov Akrom Anvarovich***

*Associate Professor, Samarkand State Pedagogical Institute, PhD*

***Bakhtiyorova Barchinoy Otayor qizi***

*Student, Samarkand State Pedagogical Institute*

**Abstract.** This thesis provides a scientific and theoretical analysis of improving education quality and effectively designing learning processes through the implementation of innovative technologies in higher education. It examines digital learning environments, distance learning platforms, principles of pedagogical design, and competency-based learning models. The role of innovative approaches in monitoring education quality and ensuring the sustainability of learning outcomes is also justified.

**Keywords:** innovative technologies, higher education, education quality, pedagogical design, digital learning, curriculum design, competency-based approach.

Zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi innovatsion rivojlanish bosqichiga kirib bormoqda. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifati va o'quv jarayonlarini loyihalashtirish samaradorligini oshirishning muhim strategik omili sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda raqamli platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, virtual o'quv muhitlari, adaptiv o'qitish texnologiyalari hamda sun'iy intellekt asosidagi o'qitish modellarining jadal rivojlanishi oliy ta'limda yangi pedagogik paradigmani shakllantirmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda ta'lim sohasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish borasidagi barcha ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham shu. Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Innovatsion rivojlanish vazirligi ta'lim muassasalariga zarur ko'makchi vazifasini bajarib kelmoqda. Zero, "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish Strategiyasi"da [1] Innovatsion rivojlanish vazirligiga o'quv-tarbiya jarayoniga yangi ta'lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o'qitishni joriy etish) vazifasi yuklatilgan. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan respublikada ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Ta'limda innovatsiya – bu o'quv jarayoniga yangicha yondashuvlar, metodlar, texnologiyalar va tashkiliy shakllarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Innovatsion ta'lim muhiti shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida shakllanib, o'quvchining mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va muammoli vaziyatlarda echim topish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini faollashtiradi, bilimlarni mexanik o'zlashtirishdan kompetensiyaga asoslangan o'rganishga o'tishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va axborot-

kommunikatsiya vositalaridan foydalanish o'quvchi faolligi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi [2].

Ta'lim jarayonida PISA talablari asosida yondashuvlarni joriy etish o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, axborotni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qitish jarayoni reproduktiv yondashuvdan kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeliga o'tishini taqozo etadi.

PISA mezonlariga mos ta'lim tizimi o'quvchilarning hayotga tayyorlik darajasini oshiradi, ta'lim natijalarining xalqaro standartlarga mosligini ta'minlaydi hamda jamiyat uchun raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi [3].

Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar (PISA, TIMSS, PIRLS kabi baholash dasturlari) ta'lim natijalarini obyektiv aniqlash, o'quvchilarning funksional savodxonligini baholash va ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarni tashkil etish jarayoni metodik tayyorgarlik, institutsional hamkorlik, monitoring tizimi va baholash mexanizmlarining yagona standartlar asosida yo'lga qo'yilishini talab etadi.

Xalqaro baholash tadqiqotlarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning bilim darajasi, kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalari aniqlanadi, ta'lim sifatidagi muammoli yo'nalishlar tizimli tahlil qilinadi hamda rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqiladi. Bu jarayon ta'limni boshqarish samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh ta'lim modelini shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Didaktik o'yin texnologiyalari o'quv jarayonini faollashtiruvchi, o'quvchini markazga qo'ygan ta'lim modeli asosida bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilishga qiziqishini kuchaytiradi va ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi.

Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, muloqot madaniyati, hamkorlikda ishlash va muammoli vaziyatlarni hal etish

ko'nikmalari shakllanadi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini reproduktiv yodlashdan kompetensiyaga asoslangan o'rganishga yo'naltiradi hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [5].

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5544-son Farmoni. – 21.09.2018. – URL: <https://lex.uz/docs/-391318>.
2. Bo'riyev H., Usmonova Yu. Ta'limda innovatsiyalar va u bilan bog'liq tushunchalarning pedagogik tavsifi // Science and Education ilmiy jurnali. – 2022. – Iyun. – 3-jild, 6-son. – B. 42–50.
3. Axmadjonova E. T. PISA — ta'lim sifati oshirish mezonlari // Agrar fan nazariyasi va amaliyotidagi dolzarb muammolar va ularning echimlari. – 2020. – B. 821–824.
4. Axmadjonova Y. T., Axmadjonova U. T., Yaxshiyeva Z. Z. Ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – 2-jild. – CSPI Conference 1-son. – B. 1563–1567.
5. Axmadjonova Y. T., Axmadjonova U. T. O'quv dars mashg'ulotlarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish // Science and Education. – 2021. – 2-jild. – 11-son. – B. 977–984.